



O'zbekiston Respublikasi maktabgacha  
va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi  
maktabgacha ta'lim agentligi  
\_\_\_\_\_ hokimligi

maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi  
\_\_\_\_\_ maktabgacha va  
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi  
\_\_\_\_-maktabgacha ta'lim tashkiloti  
kichik guruh tarbiyachisi

\_\_\_\_\_ning  
“Ilk qadam” o'quv dasturi asosida

*“Bog'imizga sayr qilamiz”*  
mavzusida tashkiloti tomonidan

**FAOLIYAT  
ISHLARI**

(iyun oyining 3-haftasi)



*v**eb-saytimiz: Zokirjon.com***  
*Hujjat Word variantda beriladi.*

*Zokirjon Admin bilan*  
*+99890-530-88-18 nomerga murojaat*  
*qilishingiz jek456 izlab telegramga yozishingiz*  
*yoki shu nomerdagi telegram orqali*  
*bog‘lanishingiz so‘raladi.*

*Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi*  
*Kichik guruhlarga iyun oyi 3-hafta “Bog‘imizga*  
*sayr qilamiz” mavzusida markazlar bo‘yicha*  
*tayyorlangan faoliyat ishlanmani to‘liq holda*  
*olish uchun*  
*telegramdan yozing.*




**Narxi: 5 ming so‘m**

**Telegram kanalimiz:**

**@maktabgacha\_tt**

**To‘lov uchun: UZCARD \*880\*9860230104973329\*summa#**

**Nabiyev Zokirjon plastik egasi**



**DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

**To‘liq holda olganingizdan so‘ng:**

Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng

yaqin insoningizga ham.

Internet orqali veb-saytlarga

joylamang.

Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA**

**HIYONAT QILMANG.**

## **Guruh: Kichik guruhlar uchun**

**Oy mavzusi: Baxtli bolalik**

**Hafta mavzusi: Bog'imizga sayr qilamiz**

**Maqsad:** bolalar bog'bon mehnati bilan shug'ullanadilar, bog'bon ish qurollaridan foydalanishni o'rganadilar.

**Kerakli jihozlar:** ish qurollari, do'ppi, qiyiqcha.

**Faoliyatning borishi:**

1. Vazifani tushuntirish.
2. Rollarni taqsimlash.
3. O'yin jarayonining borishi.
4. Bolalarni rag'batlantirish.

**Qo'shimcha:** sayr vaqtida tashkilot bog'ida mehnat qilishni o'rganadilar.

**Alohida e'tibor qaratiladi:** bog'bon ish

qurollarini boshqa turdagi mehnat qurollaridan farqlash.

**Maqsad:** bolalarning tevarak-atrofdagi mehnat tushuncha va bilimlarini chuqurlashtirish, sabzavot va mevalarning boyligini oshirish, son-sanoqni hisoblash, geometrik shakllar haqidagi tushunchalarni mustahkamlash, matematika sohasida egallagan bilimlarini faollashtirish. Kichikintoylarda kattalar mehnatiga hurmat hissini rivojlantirish. Applikasiya orqali sabzavot va mevalar nomini yodlash malakasini o'stirish, tartibli ishlash, ish jihozlaridan to'g'ri foydalanish malakasini faollashtirish. Sabzavot va mevalar nomi, turi, ishlatilishiga doir bilimlarini og'zaki bayon etish ko'nikmasini mustahkamlash. Mantiqiy savol-topshiriqlarni bajarishda mustaqil fikrlash va uni erkin bayon etish madaniyatini rivojlantirish, tabiatga doir tushunchalarini umumlashtirishda yordam berish.

**Kerakli jihozlar:** proyektor, ekran, slaydlar, sabzavotlar va mevalarning asli hamda mulyaji, xaltacha, suratli kartochkalar, likopcha, sabzavot va meva bo'laklari, cho'p, oq qog'oz, yelim, mo'yqalam, salftka, ta'limiy va mantiqiy o'yinlar kitoblari.



## Faoliyatda bolalar faoliyatining o‘zaro bog‘lanishi:

- axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish;
- badiiy adabiyot;
- matematik tasavvurlar;
- jismoniy rivojlantirish;
- tevarak-atrof tushunchalari;
- mantiqiy fikrlash;
- tasviriy faoliyat;
- mantiqiy o‘yinlar.



## Faoliyatning borishi:

**TARBIYACHI:** — Bolajonlar, qish foydalanish uchun biz qaysi meva va sabzavotlardan ko‘proq iste’mol qilamiz? Bolalar javobi. — Juda to‘g‘ri, piyoz, sarimsoq, limon va olmalar juda foydali. Piyoz va sarimsoqni bir so‘z bilan nima deb ataymiz? — Sabzavot. Olma bilan mevalarni — Meva.



Qarang, stolda mevalar ko‘p ekan, ularning nomi, qayerda o‘sishi, shakli va rangi haqida gapirib berib, ularni aytib beringlarchi. Endi, mana bu rasmi kartochkalarni oling. Ularda qaysi meva va sabzavotlar tasvirlangan? Ular qayerda pishadi? Mevalarni kim yetishtiradi? Sabzavotlarni kim o‘stiradi? Kartochkalarni tegishli joyga qo‘yib chiqamiz. Shu yo‘l bilan bolalar ikki guruhga bo‘linadi — “Mevalar” va “Sabzavotlar”. — Men sabzavot va mevalar haqida topishmoq aytaman, siz javoblarini aytasiz, kelishdikmi?! (AKT kartochkalari bilan o‘yin uchun foydalanish)

— Bolalar, siz bu meva va sabzavotlar haqida she'rlar yodlagandingiz. Qani, kim aytib beradi? Bolalar yod olgan she'rlaridan aytib beradilar.

**TARBIYACHI:** — Barakalla, she'rlarni yaxshi yod olibsiz. Hozir esa “Ajoyib xaltacha” o'yinini o'ynaymiz. Diqqat bilan o'yin qoidasini bilib oling. Tarbiyachi o'yin qoidasini tushuntiradi. Qo'lingizga ilingan narsaning meva yoki sabzavotligi, shaklini aytib, keyin bizga ko'rsating. Mevalarni bu stolga qo'yamiz, sabzavotlarni esa boshqa stolga. Bolalar,

kelinglar, mashq bajarib ozgina dam olamiz. (*Jismoniy daqiqa*)

Sabzi, piyoz va kartoshkani polizdan yig'ib oldik (*1-marta bajarilganda tizzalar*

*bukilmasdan, qo'llar pastga uzatiladi, 2-marta bajarilganda tizzalarni*



*bukib*

*o'tirishadi).*

Olma, o'rik va shaftolini bog'imizdan yig'ib oldik (*1-marta bajarilganda turgan joylarida qo'llar tepaga uzatiladi, 2-borishida qo'llar oyoq uchida ko'tarilishadi).*

**TARBIYACHI:** — Bolalar, mashq bajarib oldik, nimani olib qo'ydimiz? Bolalar javobi. Navbatdagi o'yinimiz: “Nimani olib qo'ydimiz?” Hozir biz stol atrofiga kelinglar, bu yerda meva va sabzavotlar aralashgan xaltachada tashlab ko'rib oling. Endi orqaga o'girilib turamiz. Men ulardan birini qo'yaman, siz qaysini olganimni topib, aytasiz. (*O'yin 3-4 marta o'tkaziladi*)

— Endi esa ko'zlarini tuting, sizlarga sabzavot va meva bo'laklarini beraman, mazasidan qaysi meva ekanligini aytasiz. Kichkintoylarga kesilgan sabzavot va meva bo'laklari maxsus cho'plarga ilib beriladi. Bolalar ko'zlarini yumgan holda bu qaysi meva yoki sabzavotligini, nomini, pishganligi yoki xomligini aytiladi.

— Bolalar, stol atrofiga kelib o'tiring, hozir xohlagan usulingizda sabzavot va mevalar tasvirini hosil qilishingiz mumkin, kim rasm chizmoqchi? Applikatsiya qilishni kim xohlaydi, marhamat, boshlang. Bolalarga kerakli jihozlar beriladi, ishlayotganda ularga shu meva va sabzavotlarni kim yetishtirishi, nimaga ishlatilishi,

rangi, shakli to'g'risida savollar berib turiladi.

— Bolalar, xohlaysizmi, meva va sabzavotlar ishtirokida yana bir o'yin o'ynaymiz? O'yinning nomi "Aytganimni top". Buning uchun siz mening savollarimni diqqat bilan tinglashingiz kerak. Avval, stoldagi qizil rangli narsalarni ajratamiz (*olma, pomidor, bulg'or qalampiri*). Endi ichida urug'i borlarini ajratamiz (*olma, behi, pomidor, bodring*). Pishirmay yesa bo'ladigan sabzavotlarni ajratamiz (*sabzi, piyoz, sarimsoq, karam, pomidor, turp, bodring*). Ichida danagi bor mevalarni ajratamiz (*o'rik, olxo'ri, shaftoli*). Pishirib yesa bo'ladigan sabzavotlarni ajratamiz (*kartoshka, sabzi, pomidor, lavlagi, turp, karam*). Sharbni ichish mumkin bo'lganini ajratamiz (*sabzi, olma, pomidor, o'rik*).

**TARBIYACHI:** — Aziz bolajonlar, faoliyatda juda yaxshi ishtirokingiz. Javoblarni to'g'ri, tartib bilan aytdingiz. Menga sizlarning javoblaringiz yoqdi. Sizlarga bugungi o'yinlarimizdan qaysilari yoqdi? Sabzavot va mevalar haqida bilib olganlaringizni uyda ham mustahkamlashingiz uchun sizni kitobchalar beraman.

Ustiga nima chizilgan bo'lsa, davom ettirib, xohlasangiz chizing yoki applikasiya qiling. Ularni olib kelsangiz, jihozlarimizga qo'shib, faoliyatlarimizda yana o'ynaymiz. Uyda sizlarga ota-onangiz, opa-singilaringiz yordam berishlari mumkin. Vazifa



tushunarlimi? Bolalar javobi. Yaxshi ishtirokingiz uchun yana bir bor rahmat, shuning bilan bugungi faoliyatimizni yakunlaymiz.

### Qurish va konstruksiyalash, matematika markazi

Mavzu: Gullar uchun gultuvak

Maqsad: bolalar sochiluvchi buyumlar saqlanishi mumkin bo'lgan idish shaklini yaratadilar.

Kerakli jihozlar: legolar, namuna, mavzuga oid rasmlar, tayyor gultuvaklar, yelim, gullar.

Faoliyatning borishi:

1. Namuna va mavzuga oid rasmlarni kuzatish.
2. Vazifani tushuntirish.
3. Gul tuvaklar yasash
4. Bolalarning ishini muhokama qilish.
5. Gul tuvaklarni yelim gullar bilan boyitish.

Qo'shimcha: tarbiyachi yordamida xonadagi gul tuvaklarni tozalash.

Alohida e'tibor qaratiladi: bajarilgan ish hajmi.

### San'at markazi

Mavzu: Guldasta

Maqsad: bolalar kaft orasida aylanma harakatlari orqali dasturlashni hosil qiladilar, mayda qo'l motorikalarini rivojlantiradilar.

Kerakli jihozlar: namuna, loy, plastilin, stek, doska,

Faoliyatning borishi:

1. Vazifani tushuntirish.
2. Na'muna bilan tanishish.
3. Ijodiy ish.
4. Bajarilgan ish taqqoslash.

Qo'shimcha: barcha guldastalarda mavzuga oid rasmlar.

guldasta hosil qilish.

Alohida e'tibor qaratiladi: mavzuga shakl

berish texnologiyasi.

### Til va nutq

Mavzu: "Bog'bon mehnati" rasmi asosida suhbat.

Maqsad: bolalar so'zlar va iboralarni o'z joyida ishlata boshlaydilar, suhbat davomida o'z fikrlarini to'liq bayon eta oladilar.

Kerakli jihozlar: mavzuli rasmlar.

Faoliyatning borishi:



1. Mavzuli rasmlarni tomosha qilish.
2. Rasmlardagi syujetni thlil qilish.
3. Syujet asosida o‘zaro suhbat uyushtirish.
4. Do‘stlari fikrlarini to‘ldirish.

Qo‘shimcha: mavzuga oid ta’limiy o‘yinlar.

Alohida e’tibor qaratiladi : suhbat davomida faollik va lug‘at boyligi.

### Fan va tabiat

Mavzu: Gul tuvaklari uchun tuproq tayyorlash.

Maqsad: bolalar jonli va jonsiz tabiatni farqlaydilar, tuproqning xususiyatlarini haqida qo‘shimcha ma’lumotga ega bo‘ladilar.

Kerakli jihozlar: gul tuvak, tuproq, tosh, o‘g‘itlar, suv, gul ko‘chati

Faoliyatning borishi:

1. Vazifani tushuntirish.
2. Mavjud jihozlarni ko‘zdan kechirish.
3. Vazifani tarbiyachi yordamida bajarish.
4. Tayyor tuproqqa gul ko‘chatini o‘rnatish.

Qo‘shimcha: gullarni sug‘orish tavsiya etiladi.

Alohida e’tibor qaratiladi: gul uchun maxsus tayyorlangan tuproqning tarkibi.

